

AYOL HUQUQLARI TUSHUNCHASI VA UNING INSON HUQUQLARI TIZIMIDAGI O'RNI

Mafura Muxtarxonovna INAGAMOVA

dotsent

yuridik fanlar bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Toshkent davlat transport universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ORCID: 0000-0002-1600-305X

e-mail: inagamova85@mail.ru

Аннотация

Maqolada ayol huquqlari tushunchasining nazariy-huquqiy mazmuni hamda uning inson huquqlari tizimidagi o'rni ilmiy tahlil qilingan. Inson huquqlarining universalligi tamoyilidan kelib chiqqan holda ayol huquqlarining ajralmas xususiyati asoslangan. Shu bilan birga ayollarning fiziologik, reproduktiv va ijtimoiy o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda ularga alohida huquqiy yondashuv zarurligi masalasi ilgari surilgan.

Tayanch so'zlar: ayol huquqlari, inson huquqlari, gender tenglik, huquqiy maqom, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, huquqiy kafolatlar.

ПОНЯТИЕ ПРАВ ЖЕНЩИН И ЕЕ МЕСТО В СИСТЕМЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Мафурa Мухтархановна ИНАГАМОВА

доцент

доктор философии по (PhD) юридическим наукам

Ташкентский государственный транспортный университет

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье представлен научный анализ теоретического и правового содержания концепции прав женщин и ее места в системе прав человека. Основываясь на принципе универсальности прав человека, статья обосновывает неотчуждаемый характер прав женщин, одновременно доказывая необходимость особого правового подхода к ним, учитывающего физиологическую, репродуктивную и социальную специфику женщин.

Ключевые слова: права женщин, права человека, гендерное равенство, правовой статус, международное право, национальное законодательство, правовые гарантии.

Hozirgi globallashuv sharoitida inson huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro hamjamiyatning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Inson huquqlari tizimida ayol huquqlari alohida ahamiyat kasb etib, u gender tenglik, ijtimoiy adolat va inson qadrini himoya qilish tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir.

Ayol huquqlarini ta'minlash nafaqat huquqiy masala, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ayol huquqlari bo'yicha gender tenglikni ta'minlash inson huquqlarini himoya qilishning muhim yo'nalishi ekanini ta'kidlab, «jamiyatimizda ayollarning o'rni va nufuzini oshirish – demokratik islohotlarimizning ajralmas qismi» ekanligini qayd etgan [1]. Bu yondashuv ayol huquqlari inson huquqlari tizimida institutsional va huquqiy jihatdan mustahkam o'rin egallayotganini ko'rsatadi.

Ayol huquqlari tushunchasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning inson huquqlari tizimidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki gender tenglikni ta'minlash barqaror taraqqiyot, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartidir. Shu nuqtai nazardan, ayol huquqlari tushunchasining nazariy asoslari, uning inson huquqlari tizimidagi o'rni hamda zamonaviy huquqiy yondashuvlar haqida huquqshunos olimlarning fikrlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ayol huquqlari yuridik sohada alohida o'rganilayotgan davrdan boshlab mutaxassislar, olimlar o'rtasida ayrim bahs va munozaralar ham kelib chiqqan. Ba'zi mutaxassis olimlar ayol huquqlarini inson huquqlarining o'zi, uning ajralmas qismi deb baholasalar [6], ularning ayrimlari ayol huquqlari va gender tenglik to'g'risida alohida so'z yuritishni davr taqozosi sifatida baholaganlar [3].

Inson huquqlari sohasidagi taniqli olim Jek Donnelling ta'kidlashicha, inson huquqlari universal xususiyatga ega bo'lib, ular jinsi, irqi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha insonlarga taalluqlidir [7]. Shu nuqtai nazardan, ayol huquqlari alohida toifa sifatida ajratib ko'rsatilishi, avvalo, tarixan shakllangan gender tengsizlikni bartaraf etish zarurati bilan izohlanadi. Olimning fikricha, ayol huquqlarini alohida e'tirof etish inson huquqlarining universalligini kuchaytiradi, chunki u ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarni himoya qilishni ta'minlaydi.

Amerikalik faylasuf va huquqshunos olim, inson huquqlari, gender tenglik va ijtimoiy adolat sohasidagi ishlari bilan tanilgan Marta Nussbaumning “imkoniyatlar yondashuvi” nazariyasida ayol huquqlari insonning asosiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bilan chambarchas bog‘liq deb qaraladi [8]. Uning fikricha, davlatning asosiy vazifalaridan biri – ayollarga ta‘lim olish, mehnat qilish, siyosiy hayotda ishtirok etish va shaxsiy daxlsizlik kabi fundamental huquqlarni amalga oshirish uchun teng sharoit yaratishdir. Nussbaum ayol huquqlarini inson rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi sifatida baholaydi.

Hindistonlik olim Amartya Sen esa ayollar huquqlarini kengaytirishni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘radi [9]. Uning ta‘kidlashicha, gender tengligi nafaqat axloqiy talab, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ham muhim shartidir. Senning fikricha, ayollarning ta‘lim olishi va iqtisodiy faolligi oshishi butun jamiyat farovonligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu tariqa, yuqoridagi nazariy yondashuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ayol huquqlari inson huquqlari tizimining tarkibiy va ajralmas qismi bo‘lib, u umuminsoniy huquq va erkinliklarning gender nuqtai nazaridan to‘liq va samarali amalga oshirilishini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy institutdir.

Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, inson huquqlari tizimida ishlab chiqilgan daslabki huquqiy hujjatlarda ayollarning huquq va erkinliklari, ularning erkaklar bilan teng huquqli ekanligi to‘g‘risidagi normalar mavjud bo‘lmagan. Mazkur fikrlarni tahlil qilar ekanmiz, ayol huquqlari tushunchasini inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lsada alohida o‘rganish, unga ilmiy yondashuv, alohida ta‘rif-tavsif berish zarurati mavjud yoki mavjud emasligi xususida bir to‘xtamga kelib olishni lozim hisoblaymiz.

Bizningcha, ijtimoiy munosabatlar, o‘z o‘rnida ularni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ham takomillashib borayotgan bir sharoitda, keyingi davrda siyosiy jarayonlar diqqat markazida bo‘lgan, alohida yondashilayotgan va bu yondashuvni davr taqozo qilayotgan ijtimoiy hodisa, ya‘ni ayollar huquqi masalasi uning mazmun-mohiyatini anglatuvchi o‘zining yuridik ta‘rifiga ega

bo'lishi zarur. Fikrimizcha, ushbu masala yuzasidan quyidagilarni asos qilib keltirishimiz maqsadga muvofiq:

birinchidan, ayollarning erkaklardan farqli o'laroq jamiyatdagi o'rni, nufuzi hamda o'ziga xos xislatlarining mavjudligi, jumladan homiladorlik davri va ta'tili, farzand ko'rish, uni tarbiyalash davrida ayollarga qo'shimcha huquq va imkoniyatlarning berilishi zarurati;

ikkinchidan, mehnatga oid munosabatlarda ayollarning jismoniy imkoniyatlari hisobga olingani holda ularning og'ir ishlarga jalb qilinmasligi hamda ayollar mehnatini tartibga solishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarning jahon miqyosida va mamlakatimizda qabul qilinganligi;

uchinchidan, ayollar huquqlari masalasi, ularning yuridik jihatdan qonunlarda alohida qayd etilishi uzoq tarixiy jarayonni qamrab olishi, shu bilan birga ayollarning erkaklarga nisbatan kam himoyalanganligi;

to'rtinchidan, migratsiya jarayonlari, qurolli nizolar va global inqirozlar sharoitida ayollar, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam sifatida namoyon bo'lmoqda. Qochqin va mehnat migranti bo'lgan ayollar ko'p hollarda huquqiy himoya yetishmasligi, ekspluatatsiya va zo'ravonlik xavfiga duch kelmoqda. Bu esa xalqaro hamjamiyat tomonidan ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'shimcha mexanizmlar ishlab chiqilishini talab etilayotganligi;

beshinchidan, zamonaviy jamiyatda gender stereotiplari va an'anaviy qarashlar hali ham ayollarning imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Ayrim hollarda ayollarga nisbatan munosabat ularning faqat oilaviy vazifalari bilan cheklanishiga olib keladi. Shu sababli gender madaniyatini shakllantirish, teng huquqlilik g'oyalarini ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi;

oltinchidan, ayol huquqlari targ'ibot-tashviqotini olib borilishi, ayollarga xos ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotganligi, shuningdek jamiyatda ayollar rolini kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinayotgan bo'lishiga qaramasdan, o'z huquq va erkinliklarini tushunmaydigan, bilmaydigan va ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar qatlamining mavjudligi;

yettinchidan, iqtisodiy sohada “gender ish haqi tafovuti” (gender pay gap) muammosi dunyo miqyosida dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda ayollar bir xil mehnat uchun erkaklarga nisbatan kamroq haq olishi, ularning iqtisodiy mustaqilligini cheklaydi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Zamonaviy yondashuvlarda ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ma’lumotlardan kelib chiqib, ayol huquqlari masalasini garchi inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lsada, o‘ziga xos bir qator jihatlari ham mavjudligini qayd etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari ham xalqaro-huquqiy hujjatlar kabi xotin-qizlar huquqlarining erkaklar huquqlari bilan shunchaki oddiy tarzda tenglashtirib qo‘yilishining o‘zi ularning haqiqiy tengligini ta’minlay olmasligiga asoslanadi. Bu, jumladan, shu bilan izohlanadiki, ayollar jamiyatda erkaklar bajaradigan funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda o‘ziga xos yana bir funksiya – onalik funksiyasini ham amalga oshiradilar. Binobarin, xotin-qizlarning huquqiy maqomi, ya’ni ularga tegishli huquqlar va bajaradigan majburiyatlar majmui erkaklarning huquqiy maqomi bilan aynan bir xil bo‘lmasligi kerak .

Hozirgi kunda barcha sohalardagi differensial yondashuvlar asosida ayollar va xotin-qizlar nisbatini tahlil etsak, ayollar tushunchasi asosan umumiy ma’noda ishlatiladi. Xotin-qizlar tushunchasini ishlatish yanada murakkablikni keltirib chiqaradi. Unda voyaga yetmagan, o‘smir yoshdagi, nikohdan o‘tgan, farzand ko‘rgan va h.k. ayollar toifasini ajratish talab etiladi. Shu jihatdan qonunchilikda umumiy ma’noda «ayol huquqi» tushunchasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Umuman, «ayol huquqi» tushunchasini chuqur ilmiy tahlil asosida aniqlashtirish ayollarning huquqlarini belgilashda, ularga qo‘shimcha imtiyoz va preferensiyalar berishda, ular huquqini himoya qilishda alohida ahamiyatga ega.

Yuridik adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda ayol huquqi yoki ayollar huquqi tushunchalari aynan izohlangan, ta’riflangan ma’lumotlar juda kam ekanligini, ba’zi adabiyotlardagina ayol huquqlari tushunchasi ma’lum darajada

sharhlanganligini ko'rishimiz mumkin. Fransuz olimlaridan Sh.B.Samanta Frost ayol huquqlariga quyidagicha ta'rif berib o'tgan, ya'ni ayol huquqlari inson huquqlari hisoblanib, buning ma'nosi ayol mavjud ekan, insonga berilgan barcha huquqlarga egadir [6].

Mazkur ta'rif ayol huquqlari tushunchasining mazmunini ma'lum darajada yoritib bera oladi. Chunki insonning xoh ayol, xoh erkak kishi bo'lsin dunyoga kelishi uning ma'lum huquqlar egasiga aylantiradi. Samanta Frost mazkur ta'rifni ilgari surishda ayol huquqlariga aynan urg'u bermasdan, uning inson huquqlari ekanligini ta'kidlamoqda. Ayni vaqtda ushbu ta'rifda ayollarning inson ega bo'lishi mumkin bo'lgan barcha huquqlarga ega ekanligining ta'kidlanganligi uning ilmiy jihatini oshiradi.

L.P.Kurakov va boshqa hammuallif olimlar tomonidan ayol huquqlari tushunchasi quyidagicha izohlangan, ya'ni ayol huquqlari bu umumiy tarzda inson huquqlari bo'lib, shu bilan birga ayollarning jamiyat va oiladagi alohida mavqe'i hamda ayollargagina aloqador bo'lgan o'ziga xos huquq va erkinliklarning majmuidir [2]. Mazkur ta'rifda mualliflar ayollar huquqlarini aynan inson huquqlari sifatida baholash bilan birga uning boshqa o'ziga xosligini ham nazardan chetda qoldirishmagan.

Mualliflar ayol huquqlarini ta'riflashda ularning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, ayol huquqlari masalasiga yondashuvda aynan ayollargagina aloqador bo'lgan masalalar ham hisobga olinishi zarurligini ilgari suradilar. Darhaqiqat, ayollarning erkaklarga nisbatan huquq olamidagi ayrim imtiyozlari, jismoniy imkoniyatlari, erkaklarga nisbatan kam himoyalanganligi ayol huquqlari bo'yicha mutaxassislar e'tiborida bo'lmog'i lozim.

Boshqa ba'zi mualliflar ayol huquqlari – bu inson huquqlari demakdir, deb ta'kidlashgan [4]. Biz ushbu ta'rifni inkor etmagan holda, ayol huquqlariga ta'rif berishda ayollarning jismoniy imkoniyatlari, fiziologik xususiyatlari, himoyalanganlik darajasining erkaklarga nisbatan pastligi (xususan oilada, er-xotinlik munosabatlarida), ba'zida qo'shimcha imtiyozlardan foydalanish zaruratining mavjudligi (homiladorlik, bola tarbiyalash ta'tillari) kabi mezonlar

hisobga olinishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu jihatdan ayol huquqlari bu inson huquqlari deb yondashuvchi mualliflarning ta'riflariga to'liq qo'shila olmaymiz.

Ayollar huquqi bilan shug'ullangan olimlardan A.V.Mironova ayol huquqlarini izohlashga alohida yondashib xalqaro huquqning hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, siyosiy, fiziologik jihatdan aholining alohida himoyaga muhtoj bo'lgan, insonlar uchun belgilangan huquq va erkinliklarni amalga oshirishda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lmagan qatlamiga e'tibor kuchayib borayotganligini va bu masala bevosita ayollar huquqiga taalluqli ekanligini ta'kidlagan [5]. A.Mironovanning mazkur ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ko'rinib turibdiki, ushbu fikr ayol huquqlari tushunchasini o'zida qamrab olmagan, lekin ayol huquqlariga yondashuvda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan eng muhim jihat, ya'ni ayollarning erkaklar kabi teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lmaganligi, eng muhimi, ularning fiziologik jihatdan aholining himoyaga muhtoj qatlamiga mansubligi qayd etilgan.

Albatta, huquqiy hujjatlarda erkak va ayollarning teng huquq va erkinliklari qayd etilgan bo'lsada, erkaklarning jamiyatdagi o'rni va mavqe'i ayollarga nisbatan ustun ko'rilishi, yoki teng huquqlilik niqobi ostida ayollarga ularning fiziologik jihatlariga to'g'ri kelmaydigan mehnat munosabatlariga jalb qilinishi kabi masalalar borki, ayol huquqlarini ko'tarishga, ularning huquqlari belgilangan huquqiy normalarni hayotga faol tatbiq qilishga, ayollarning himoyalanganlik darajasini yuksaltirishga undaydi. Shu jihatdan ayollar huquqi masalasiga A.Mironovanning yondashuvini qo'llab-quvatlaymiz.

Yuqorida qayd etilgan ayol huquqi masalasiga mutaxassislarning yondashuvlari, ayol huquqi tushunchasining o'ziga xosligini ifoda qilib turuvchi alohida ta'rifiga ehtiyojning zaruratidan kelib chiqib, ayol huquqlariga quyida batafsilroq ta'rif berishga harakat qilamiz.

«ayol huquqlari bu – inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, xalqaro va milliy huquqiy normalar asosida shakllangan, xotin-qizlarning o'ziga xos xususiyatlarini (reproduktiv, fiziologik va h.k.) inobatga olgan holda tizimlashgan,

davlatlar hamda xalqaro hamjamiyatlar tomonidan kafolatlanadigan qoidalar majmuidir».

Mazkur mualliflik ta'rifimizni ilgari surishimiz uchun quyidagilarni asos qilib ko'rsatmoqchimiz: birinchidan, har qanday huquqiy normalar davlat tomonidan ishlab chiqiladi, belgilanadi va himoya qilinadi; ikkinchidan, ayol huquqlari inson huquqlarining barcha elementlarini qamrab oladi, shuning uchun ham ba'zi mualliflar ayol huquqlarini inson huquqlari deb hisoblab unga alohida ta'rif berishni lozim hisoblashmagan; uchinchidan, ayol huquqlarining uzoq davrlardan buyon erkaklar huquqi bilan teng bo'lmaganligi, jamiyatda ularning kam himoyalanganligi; to'rtinchidan, eng muhimi, ayollarning o'ziga xosligi, jismoniy jihatdan erkaklardek jismoniy qo'shimcha kuch talab qiladigan ishlar bilan mashg'ul bo'la olmasligi va ushbu masala ularning huquq va majburiyatlarini belgilashda hisobga olinishi shartligi, beshinchidan, ayollarning farzand ko'rish hamda uni tarbiyalashdek yuksak va sharaflil vazifaga mas'ulligi, oltinchidan, xalqimizning o'ziga xos mentaliteti, unda ayollarga bo'lgan munosabatlar. Fikrimizcha, ayol huquqlarini ilmiy tavsiflashda qayd etib o'tgan asoslarga tayanilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. – Toshkent, 2021.
2. Кураков Л.П., Кураков В.Л. Энциклопедический словарь экономика и право: словарь-справочник. - М.: Вуз и школа. 2004., С-341
3. Маткаримова Г.С. Аёл ҳуқуқлари ва гендер тенглик. Конституцияда инсон ҳуқуқлари ҳимояси. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – Б-31.
4. Мертус Джулия. Права женщин – права человека: Пособие для учебных занятий. – М.: Глас, 1996. (239 с.);
5. Миронова А.В. Международно-правовое регулирование труда женщин. Автореферат дис. ... кандидата юридических наук., Москва, 2008. С-3 (23 с)

6. Саманта Фрост Ш.Б. Права женщин – права человека //Журнал WE/МЫ, №5 (21). – 1998. – С-17.
7. Donnelly, J. *Universal Human Rights in Theory and Practice*. 3rd ed. Ithaca: Cornell University Press, 2013.
8. Nussbaum, M. C. *Women and Human Development: The Capabilities Approach*. Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
9. Sen, A. *Development as Freedom*. New York: Alfred A. Knopf, 1999.